

## TA'LIM JARAYONIDA INTERFAOL USULLAR VA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH

*Qo'qon davlat pedagogika instituti o'qituvchisi  
J.Mahmudjonov*

### **Annotatsiya**

*Ushbu maqolada darslarni tashkillashda va o'quvchilarni baholashda interfaol metodlarni qo'llash, darslarni o'tishda kahoot dasturidan foydalanish haqida tavsiyalar keltirilgan.*

***Kalit so'zlar:** interfaol metod, o'qituvchi, pedagogik faoliyat, Kahoot, video dars*

Mamlakatimizda yangi demokratik va modernizatsiyalashgan jamiyatni qurish uchun yuksak ilmga ega bo'lgan, ruhiy-psixologik tetik va sog'lom, erkin va mustaqil fikrlaydigan, ayni paytda ijtimoiy mas'uliyatni chuqur his etadigan, barkamol avlod va komil insonni tarbiyalash g'oyatda muhim.

Kadrlar tayyorlash masalasi milliy kamolotimizning bosh strategik asoslari bo'lgan ushbu masala mustaqil davlatimizning XXI asr boshlaridagi rivojining ustuvor yonalishlaridan biriga aylandi.

Ta'lim muassasalarida interfaol metodlar asosida yoshlarning dunyoqarashini boyitish, ularda Vatanga sodiqlik, uning taraqqiyotiga daxldorlik hissi, milliy g'ururni shakllantirish, ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida kamol toptirish, hozirgi zamondagi keskin intellektual – ma'naviy raqobatga javob bera oladigan, mustaqil qarorlar qabul qilishga qodir bo'lgan yuksak malakali mutaxassislar etib tarbiyalash, ta'lim tizimini demokratik va insonparvarlik yo'nalishlarda qayta qurish orqali ta'lim mazmunini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish davr talabidir[1-203].

Zamonaviy ta'limni tashkil etishga qo'yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Qisqa vaqt orasida muayyan nazariy bilimlarni o'quvchilarga etkazib berish, ularda ma'lum faoliyat yuzasidan ko'nikma va malakalarni hosil qilish, ular tomonidan egallangan bilim, ko'nikma hamda malakalar darajasini baholash o'qituvchidan yuksak pedagogik mahorat hamda ta'lim jarayoniga nisbatan yangicha yondashuvni talab etadi. Ta'lim texnologiyasi o'z mohiyatiga ko'ra sub'ektiv xususiyatga ega, ya'ni har bir pedagog ta'lim va tarbiya jarayonini o'z imkoniyati, kasbiy mahoratidan kelib chiqqan holda ijodiy tashkil etishi lozim. Qanday shakl, metod va vositalar yordamida tashkil etilishidan qat'iy nazar ta'lim texnologiyalar:

- pedagogik faoliyat samaradorligi oshirish;
- o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida o'zaro hamkorlikni qaror toptirishi;

## Globalashuv jarayonida yoshlar mustaqil dunyoqarashini shakllantirishda ta'lim tizimi va oiladagi muammolar hamda ularning yechimlari

- o'quvchilar tomonidan o'quv predmetlari bo'yicha puxta bilimlarning egallanishini ta'minlashi;
- o'quvchilarda mustaqil, erkin va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishi;
- o'quvchilarning o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishlari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishi;
- ta'lim jarayonida demokratik va insonparvarlik g'oyalarining ustuvorligiga erishishni kafolatlashi zarur.

Ta'lim texnologiyalardan tajribali pedagoglar tomonidan asoslangan yoki qo'llanilayotgan ilg'or texnologiyalardan foydalanish bilan birga ularni ijodiy rivojlantirish maqsadga muvofiqdir.

Ta'lim tizimini yanada takomillashtirish maqsadida hukumat qarori bilan "Respublika davlat ta'lim muassasalarida o'quvchi va talabalarga o'quv-uslubiy filmlar yordamida dars o'tish tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"[2.] hukumat qarori qabul qilinditasdiqlandi.

Nizomga ko'ra, ta'lim muassasalarida dars o'tish uchun foydalaniladigan o'quv-uslubiy filmlar mavzulari Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hamda Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tomonidan tasdiqlanadi.

Har yili 30-yanvargacha filmlarning tasdiqlangan mavzulari ro'yxati Kinematografiya agentligiga taqdim etiladigan bo'ldi. Shunga ko'ra, agentlik tomonidan har yili 50 tagacha film ishlab chiqarilishi rejalashtiriladigan bo'ldi.

Bunda filmlarning mavzulari o'quvchi va talabalar o'zlashtirishi murakkab bo'lgan fanlar, ularning asoslari, mavzulari (formula, teorema, qonuniyatlari) asosida shakllantirilishi lozimligi ko'rsatib o'tildi. Ushbu qaror ta'lim jarayonlarining samaradorligi, natijadorligini oshirish bilan bir qatorda o'quvchi yoshlarning dunyoqarashi, darsga bo'lgan qiziqish va e'tiborini yanada oshirishga olib keladi.

Dars davomida video – ko'rgazmalardan foydalanishning bir qator afzalliklari mavjud jumladan:

- o'quv dasturi asosida o'rganilishi kerak bo'lgan materiallarni o'quvchilarga ixcham, qulay ko'rinishda taqdim etish;
- texnik vositalarning o'quvchi bilan interfaol usullarda muloqatda bo'la olishi;
- o'quvchilarning o'quv materiallarini mustaqil ravishda o'rganishi va olgan bilimlarini test sinovlari asosida sinab ko'rishi mumkinligi.

Hozirgi kunda barcha ta'lim muassasalarida o'qitish davomida interfaol usullardan foydalanishga erishilmoqda. Bu esa interfaol ta'lim asosida tashkil etilayotgan pedagogik jarayonlarni mazmun-mohiyatini to'liq tushunib yetishga va ularni samarali, qiziqarli, sifatli bo'lishini ta'minlashgayordamlashadi. Mazkur usullarning yangi-yangi ta'lim usulariga tavsif berib o'tamiz.

Interfaol metod – ta'lim jarayonida o'quvchilar hamda o'qituvchi o'rtasidagi faollikni shirish orqali o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirishini faollashtirish, shaxsiy

## Globalashuv jarayonida yoshlar mustaqil dunyoqarashini shakllantirishda ta'lim tizimi va oiladagi muammolar hamda ularning yechimlari

sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Interfaol metodlarni qo'llash dars samaradorligini oshirishga yordam beradi. Interfaol ta'limning asosiy mezonlari: norasmiy bahs-munozaralar o'tkazish, o'quv materialini erkin bayon etish va ifodalash imkoniyati, o'quvchilar tashabbus ko'rsatishlariga imkoniyatlar yaratilishi, kichik guruh, katta guruh, sinf jamoasi bo'lib ishlash uchun topshiriqlar berish, yozma ishlar bajarish va boshqa metodlardan iborat bo'lib, ular ta'lim-tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirishda o'ziga xos ahamiyatga ega.

Interfaol mashg'ulot turlari ko'p bo'lib, ularni dars mavzusining xususiyatlari hamda ko'zda tutilgan maqsadlarga muvofiq tanlanadi va tegishli tayyorgarlik ko'riladi. Interfaol mashg'ulotda ishtirok etish uchun o'quvchilarning tayyorliklariga o'ziga xos talablar qo'yiladi, bular mashg'ulotda faol ishtirok etish uchun zarur bilimlarni o'zlashtirganlik, muloqotga tayyorlik, o'zaro hamkorlikda ishlash, mustaqil fikrlash, o'z fikrini erkin bayon qilish va himoya qila olish ko'nikmalari va boshqalardan iborat.

Dars davomida interfaol mashg'ulot sifatida o'tishda bir qator dasturiy vositalardan foydalanish mumkin. Bunday dasturiy vositalardan biri Internet tarmog'ida joylashtirilgan "Kahoot" dasturidir. Dastur o'qituvchiga dars o'qish jarayonida dars bo'yicha tezkor savol-javob o'tkazish imkoniyatini beradi. O'qituvchi tomonidan tayyorlangan savol va javoblar auditoriyadagi ekranida namoyish etadi. O'quvchilar esa o'zlaridagi smartfon, planshet yoki kompyuterlari orqali berilgan savolning javobini tanlaydilar. Savol-javoblardan olingan natijalar auditoriyadagi ekranda aks etadi. Tizim onlayn rejimida ishlaydi[3-235].

Kahoot dasturidan darslar jarayonida foydalanish uchun auditoriyada Internet tarmog'i mavjud bo'lishi va undan samarali foydalanish uchun tegishli texnika vositalari (kompyuterlar, tarmoqqa ulangan telefon, proyektor) mavjud bo'lishi kerak.

Kahoot dasturidan darslarda foydalanish dars o'qilishi jarayonida uning o'zlashtirilishini nazorat qilish, darsning bir qismi o'qilgach, uning qay darajada o'zlashtirilishini aniqlash va qisqa savol-javob o'tkazish orqali o'quvchilarning diqqatini dars mazmuniga jalb qilish. davrida bir qator imkoniyatlarni yaratish, qisqa savol-javoblar natijasiga qarab tinglovchilarga tegishli ballar berish. O'quvchilar tomonidan dars paytida to'plangan ballar oraliq va yakuniy nazorat ballariga qo'shilishi mumkin, dars paytida uni diqqat bilan tinglayotgan va faol ishtirok etgan o'quvchilarni aniqlash hamda ularning bilimini baholash imkoniyatini beradi[3.1-239].

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish, e'tibor tobora kuchaygan.

Xulosa qilib aytganda, o'qituvchi tomonidan dars jarayonida interfaol metod va pedagogik texnologiyalardan o'rinli foydalanish kichik gurux a'zolari o'rtasida, so'ng kichik guruxlar bilan o'zaro o'quv bahsi o'tkazilishi, bahsda o'quvchilar tomonidan yo'l qo'yilgan kamchiliklarni to'ldirish, bilimidagi bo'shliqlarni to'ldirish yuzasidan

## Globalashuv jarayonida yoshlar mustaqil dunyoqarashini shakllantirishda ta'lim tizimi va oiladagi muammolar hamda ularning yechimlari

o'qituvchi tomonidan berilgan axborot ta'lim samaradorligini oshirishda yordam beradi. Bundan tashqari, o'quvchilarning o'zlashtirgan bilimlarini tizimlashtirish, mustahkamligini ta'minlashda inter faol metodlardan foydalanish dars mashg'ulotlarini samarali o'tishni ta'minlaydi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Tashmetov T. Milliy g'oya fanini interfaol usullar asosida o'qitish davr talabi // Academic Research in Educational Sciences. – T., 2022. – № 3. – B. 203.
2. <https://lex.uz/pdfs/6755631>
3. Nuraliyev Sh. O'quvchilar bilimini baholashda kahoot! O'yin dasturidan foydalanish // Multidisciplinary Scientific Journal. – T., 2022. – № 1. – B. 235, 239.
4. Mahmudjonov, Javoxir. "XALQ AMALIY SAN'ATIGA BIR NAZAR." Talqin va tadqiqotlar 1.35 (2023).
5. Mahmudjonov, Javoxir. "QO'QON XOLIGIDA HUNARMANDCHILIK VA UNING TURLARI." Interpretation and researches 1.18 (2023).
6. Mahmudjonov J. XALQ AMALIY SAN'ATIGA BIR NAZAR //Talqin va tadqiqotlar. – 2023. – T. 1. – №. 35.
7. Mahmudjonov, J. (2023). XALQ AMALIY SAN'ATIGA BIR NAZAR. Talqin va tadqiqotlar, 1(35).
8. Mahmudjonov J. QO'QON XOLIGIDA HUNARMANDCHILIK VA UNING TURLARI //Interpretation and researches. – 2023. – T. 1. – №. 18.
9. Mahmudjonov, J. (2023). QO'QON XOLIGIDA HUNARMANDCHILIK VA UNING TURLARI. Interpretation and researches, 1(18).